

INKLYUZIV ISH BILAN TA'MINLASH MODELI: SKANDINAVIYA TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI

Jumayeva Muxlisa Abdug'ani qizi

Alfraganus University katta

o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shvetsiyaning Misa tashkiloti tomonidan shakllantirilgan inklyuziv ish bilan ta'minlash modeli va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda kompaniyaning o'ziga xos "MISA" konsepsiyasi, yondashuvning ilmiy-metodik asoslari hamda mehnat bozorida inklyuzivlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy faoliyati o'rganiladi. Shu orqali O'zbekiston sharoitida foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or xorijiy tajriba asoslari aniqlandi.

Kalit so'zlar: inklyuzivlik, Misa modeli, Supported Employment, nogironligi bo'lgan shaxslar, ish bilan ta'minlash, Skandinaviya tajribasi, ijtimoiy integratsiya, inklyuziv tadbirkorlik.

Аннотация. В данной статье проанализирована модель инклюзивной занятости, разработанная шведской организацией Misa, а также её социально-экономическая эффективность. В исследовании изучены оригинальная концепция «MISA», научно-методологические основы подхода и практическая деятельность компании, направленная на усиление инклюзивности на рынке труда. На основе этого выявлены элементы передового зарубежного опыта, которые могут быть применены в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: инклюзия, модель Misa, Поддерживаемая занятость, лица с инвалидностью, занятость, скандинавский опыт, социальная интеграция, инклюзивное предпринимательство.

Annotation. This article analyzes the inclusive employment model developed by the Swedish organization Misa and assesses its socio-economic effectiveness. The study examines the distinctive "MISA" concept, the scientific and methodological foundations of the approach, and the organization's practical activities aimed at strengthening inclusivity in the labor market. As a result, key elements of advanced international practices applicable in the context of Uzbekistan have been identified.

Keywords: inclusion, Misa model, Supported Employment, persons with disabilities, employment, Scandinavian experience, social integration, inclusive entrepreneurship.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda inklyuzivlik – bu shunchaki ijtimoiy g'oya emas, balki inson huquqlari, iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida [1] qayd etilishicha, har bir inson jamiyatning barcha jabhalarida teng qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur, shu jumladan mehnat

bozorida ham. Inklyuziv bandlik siyosati nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlarini amalga oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro miqyosda, ayniqsa Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida nogironligi bo'lgan fuqarolarni mehnat muhitiga jalb qilishga qaratilgan dasturlar tizimli yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, ushbu guruhdagi aholining ish bilan ta'minlanish darajasi hanuzgacha umumiy aholiga nisbatan ancha past bo'lib qolmoqda [2]. Shu sababli ko'plab mamlakatlar "Supported Employment" – qo'llab-quvvatlov asosidagi ishga joylashtirish modelini keng qo'llashmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ijtimoiy himoya va inson huquqlarini kengaytirish borasida sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Xususan, 2021 yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bu boradagi siyosiy irodaning kuchli ekanidan dalolat beradi[4]. Biroq, amaliyotda ayniqsa mehnat integratsiyasi sohasida xorijiy ilg'or tajribalarni tahlil qilish va moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada aynan Misa kompaniyasining 30 yillik amaliy tajribasi va metodologik asoslari orqali inklyuziv mehnat siyosatining samarali modeli yoritiladi hamda O'zbekiston sharoitida uni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Inkluziv mehnat modeli bo'yicha nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish, bu sohada yetakchi yondashuvlar va ularning qo'llanilish doirasini aniqlash imkonini beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" mehnatga teng kirish huquqini universal prinsip sifatida belgilaydi va ushbu huquqning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga integratsiyasini zarur deb hisoblaydi [1]. Bu yondashuv davlatlarning nafaqat huquqiy, balki institutsional majburiyatlarini ham belgilaydi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan hisobotlarda inklyuzivlik siyosatini amalga oshirishda tizimli yondashuvning yetishmasligi nogironligi bo'lgan shaxslarning bandlik darajasini pasaytiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan [2]. Mehnat bozorida bu guruh vakillarining ishtiroki ko'plab mamlakatlar uchun strategik resurs bo'lishiga qaramay, ularning bandlikdagi ulushi nisbatan past darajada qolmoqda. Shu sababli, "Supported Employment" modeli xalqaro miqyosda keng qo'llanila boshlandi.

Shvetsiyadagi Misa kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya ushbu modelning evolyutsiyalashgan shakli bo'lib, mehnat integratsiyasini nafaqat ish bilan ta'minlash vositasi, balki ijtimoiy ishtirok va iqtisodiy foyda manbai sifatida ko'radi. Kompaniyaning metodik yondashuvi "Three Steps to Work" modeli asosida bosqichma-bosqich rejalashtirish, individual ehtiyojlarga tayanuvchi yo'llanmalar ishlab chiqish va real mehnat muhiti bilan integratsiyani ta'minlashga qaratilgan [3]. Ushbu metodologiya konseptual asoslari bilan tavsiflanib, nogironligi

bo'lgan shaxslarning ijtimoiy salohiyatini ish orqali ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston kontekstida, so'nggi yillarda inklyuziv siyosatning huquqiy asosi mustahkamlanmoqda. 2021 yilda qabul qilingan maxsus qonun bilan nogironlarning mehnat, ta'lim va ijtimoiy sohalarida teng ishtirokini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi [4]. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni o'rganish va moslashtirish, ayniqsa amaliy mexanizmlar nuqtai nazaridan, hozirda ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Misa kompaniyasining faoliyati, shu jumladan uning iqtisodiy natijalari, bu modelning nafaqat ijtimoiy, balki byudjet yuki jihatidan ham samaradorligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, har bir nogironligi bo'lgan shaxsning bandligi davlat xarajatlarini ikki baravarga qisqartirishi mumkin [5]. Bu iqtisodiy samaradorlik Yevropa Komissiyasining 2019 yildagi tahliliy hujjatlarida ham asoslab berilgan [6]. Unga ko'ra, inklyuziv bandlik dasturlarining ijtimoiy rentabelligi moliyaviy sarmoyadan ortiq foyda keltiradi, xususan sog'liqni saqlash, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish orqali.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili yondashuvi asosida "Misa" modelining institutsional, metodik va amaliy jihatlari o'rganildi. Asosiy manba sifatida kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan "Three Steps to Work" qo'llanmasi va tegishli xalqaro hujjatlar tahlil qilindi [3]. Modelning samaradorligini baholashda OECD va Yevropa Komissiyasi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlardan foydalanildi [2][6]. O'zbekiston kontekstiga moslashtirish imkoniyatlari esa huquqiy baza va mavjud institutsional infratuzilma asosida baholandi [4]. Tahlil jarayonida normativ hujjatlar, xalqaro tajribalar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zaro solishtirma usulda integratsiyalashgan holda o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Yevropa mamlakatlarida, xususan Skandinaviyada inklyuziv bandlik siyosati uzoq yillik tajriba asosida shakllangan bo'lib, bu model ijtimoiy integratsiya va teng imkoniyatlar tamoyillariga tayangan. Shvetsiyada "Supported Employment" – qo'llab-quvvatlov asosidagi ishga joylashtirish modeli asosida faoliyat yurituvchi "Misa" kompaniyasi 1994 yildan buyon nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat muhitiga jalb qilishda innovatsion metodlarni ishlab chiqib, real ijtimoiy integratsiya tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. "Misa" modelining o'ziga xosligi shundaki, u maxsus va himoyalangan ish muhitlarini emas, balki odatiy mehnat va ishlab chiqarish sharoitlarini afzal ko'radi. Bunda har bir ishtirokchining qiziqishi, salohiyati va ehtiyojlari e'tibor markaziga olinadi [3]. Misa konsepsiyasidagi "MISA" qisqartmasi esa faoliyatning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini ifodalaydi (1.1.jadval). Bu metodologiya tashabbuskorlar tomonidan 2011-yilda chop etilgan "Three Steps to Work" (Ishga uch qadam) qo'llanmasi orqali amaliyotga tadbiiq etilgan. Mazkur qo'llanma nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat muhitiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish jarayonini aniq, amaliy va tizimli tarzda tavsiflab bera olgan.

Har yili Misa xizmatlaridan 1600 dan ortiq shaxslar foydalanadi va ular orasida intellektual rivojlanishdan orqada qolgan, autizm spektridagi, ruhiy kasallikka ega, shuningdek ijtimoiy cheklovlar bilan yashovchi insonlar ham mavjud. Kompaniya, asosan, LSS (Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yordam va xizmatlar to'g'risidagi qonun, Shvetsiya) asosida ishga tayyorlovga asoslangan xizmatlar ko'rsatadi. Bunda, ish topish va malakaga ega bo'lish uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga muhtoj shaxslar uchun kunlik mashg'ulotlar va reabilitatsiya xizmatlarini taqdim etiladi, shuningdek, inkluziv ish beruvchilar bilan hamkorlik qiladi.

1-jadval

MISA modelining asosiy tamoyillari⁵¹

Harf ⁵²	Tamoyil	Mazmuni
“M”	Methodology Development (Usulni ishlab chiqish)	Metodik yondashuv va ko'rsatmalarni takomillashtirish uchun turli tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etish
“I”	Individual Perspective (Individual nuqtai nazar)	Har bir ishtirokchining imkoniyat va qiziqishini inobatga olgan holda qolipga solinmagan yechimlar taklif qilish
“S”	Community Inclusion (Jamiyatga qo'shilish)	NBSH uchun real mehnat muhitini yaratish orqali jamiyat rivojlanishiga xissa qo'shish
“A”	Work Orientation (Ishga yo'naltirish)	Ish joyi orqali ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish, ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilish

Faoliyati davomida Misa ko'plab xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etgan. 2010–2014 yillarda esa Misa tomonidan bir necha bor “Diversity and Entrepreneurship” konferensiyalari o'tkazilgan bo'lib, u orqali ish beruvchilar o'rtasida inklyuzivlik tamoyillari faol targ'ib qilingan. Bu tadbirlar Shvetsiyada inklyuziv ish joylarini tashkil etish bo'yicha muhim platforma bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda Misa tashkilotining 17 ta hududiy bo'linmalarida 215 dan ortiq mutaxassis (asosan mehnat konsultantlari) faoliyat yuritadi. Misa hisobotlariga ko'ra, 1 nafar nogironligi bo'lgan shaxs uchun yillik davlat xarajati 9,000 yevrodan 4,500 yevro⁵³ga qisqargan[5]. Ya'ni passiv yordamga tayanmay ishga joylashgan har bir nogironligi bo'lgan fuqaro uchun yiliga €4,500 mablag' tejalmoqda. Bu esa inklyuziv mehnat modelining iqtisodiy jihatdan samarali ekanini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bu hisob-kitobda faqat to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ko'rsatkichlar inobatga olingan bo'lib, bilvosita foydalar (sog'liq yaxshilanishi, ijtimoiy muvozanat, ruhiy barqarorlik) esa bu raqamdan ham ko'proq samarani taqdim etadi. Chindan ham, Yevropa komissiyasining 2019 yilgi “Social Return on Investment in Inclusive Employment Programs” hisobotida “Supported Employment” modelining xarajatlari va tejamkorligi tahlil qilingan bo'lib, davlatning har bir nogironligi bor

⁵¹ “Misa” kompaniyasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁵² Misa qisqartmasidagi harflar shved tilidagi so'zlarning bosh harflari

⁵³ Misa modeli orqali kamaytirilgan harajat

shaxs uchun qiladigan xarajatlari ularning bandligi ta'minlanganligi hisobiga 40–60% ga kamayishi mumkinligi aytilgan[6].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun Misa modelining quyidagi jihatlari dolzarb ahamiyatga ega degan xulosaga keldik:

- 1) real mehnat muhiti orqali inklyuzivlikni ta'minlash;
- 2) shaxsga yo'naltirilgan individual yondashuvdagi metodlar;
- 3) davlat-xususiy NNT hamkorligi;
- 4) malaka oshirgan mehnat konsultantlari tarmog'ini yaratish;
- 5) ijtimoiy mentorlik tizimini joriy etish. Bu yondashuvlar orqali mehnat bozorining ijtimoiy qamrov darajasini oshirish mumkin.

Ayniqsa, xususiy sektordagi korxonalarga nogironlarni ishga olishga tayyorlash bo'yicha maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu faoliyatni Savdo-sanoat palatasi, Bandlik organlari va nogironlar jamiyatlari yordami bilan amalga oshirish mumkin.

Misa tajribasi nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy nuqtai nazardan ham inklyuziv yondashuv samaradorligini ko'rsatmoqda. Kompaniya modeli O'zbekistonda inklyuziv jamiyat qurish siyosatini shakllantirish, davlat tomonidan ijtimoiy bandlik siyosatini kuchaytirish va biznesni ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirish uchun muhim konseptual asos sifatida yanada kengroq o'rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. (2006). Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). <https://www.un.org/development/desa/disabilities/convention-on-the-rights-of-persons-with-disabilities.html>
2. OECD. (2022). Disability, Work and Inclusion: Mainstreaming in All Policies and Practices. <https://www.oecd.org/employment/disability>
3. Jonsson, L. (2020). Three Steps to Work. Misa Publications.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2021). Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida. www.lex.uz
5. Misa Company Presentation. (2025). Third Inclusive Business Forum, Tashkent.
6. European Commission. (2019). Social return on investment in inclusive employment programmes: Measuring the economic and social value of social inclusion. Directorate-General for Employment, Social Affairs and Inclusion. Publications Office of the European Union. <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/6810c2a4-75d9-11e9-9f05-01aa75ed71a1>